Ma'lumki, hozirgi zamon ishlab chiqarishi, undagi tarmoq ichidagi va taomoqlararo ishlab chiqarish aloqalari juda murakkab va ko'p tomonlamadir. Shuning uchun ham hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarish tsikllarining hamda bosqichlari bitta respublika va hatto bitta yirik iqtisodiy rayon territoriyasida joylashmasligi mumkin. Texnika va texnologiyaning tez o'zgarishi, yangi transport vositalarining rivojlanishi, yuk tkshishning arzonlashuvi va tezlashuvi turli rayon va respublikalarni ayrim ishlab chiqarish tsikllarining turli bosqichlarini bajarishga ixtisoslashishni maqsadga muvofiq hamda iqtisodiy jihatdan samarali qilib qo'ymoqda.

Hozirgi paytda bitta iqtisodiy rayon yoki respublika territoriyasidagi faqat industrial-agrar ishlab chiqarish tsikllarining deyarli barcha bosqichlari mavjud. Bu esa, ana shu tsikl xom ashyosining xarakteri (tez buzilishi, tashishning

maqsadga muvofiqligi emasligi) bilan bog'liqdir. Qolgan deyarli barcha industrial ishlab chiqarish tsikllarida har xil bosqichlarining turli rayonlarda joylashganligini ko'ramiz. Shunga asoslanib V.Ya. Rom ishlab chiqarish tsikllari turli bosqichlarning bir rayonda joylashishi shart emasligi, ular turli rayonlarda joylashishi mumkinligi, hozirgi zamon tsikllari rayonlararo va tarmoqlararo ishlab chiqarish birikmalari ekanligini asoslab berdi.

Biz quyidagi keltirilgan jadval orqali 17 ta ishlab chiqarish tsikllarining O'zbekiston territoriyasida mavjudligi va qay darajada rivojlanganligi bilan tanishamiz. Har bir tsiklning sostavi va xususiyatlari (ayrimlarining tarxi) prof. A.T Xrushchev ilmiy ishlarida berilgan. O'zbekiston uchun xarakterli bo'lgan gidromeliorativ industrial-agrar tsikl hamda Olmaliq tog'-kon metallurgiya kombinati misolidagi rangdor metallurgiya tsikli O'zbekiston uchun xosdir.

O'zbekistonda ayniqsa rangdor metallar tsiklining ayrim tarmoqlari, gazenergoximiya, issiqlik va gidroenergiya sanoati tsikllari, to'qimachilik sanoati tsikli hamda industrial-agrar tsiklining maxsus O'zbekistonning sug'orma dehqonchilik bilan bog'liq bo'lgan modifikatsiyasi-gidromeliorativ industrial-agrar tsikllar eng yaxshi va to'la rivojlangan.

Endi har bir EICHK lari to'g'risida batafsil ko'rib chiqamiz.

N.N. Kolosovskiy energiya ishlab chiqarish tsiklini tipik, mustahkam, berilgan energiya va xom ashyo turi atrofida o'zaro bog'liq bo'lgan ishlab chiqarish jarayonlar (sovokupnost) birligining mavjudligi, deb ta'kidlangan.

Uning fikricha har 1 tsikl xom ashyo va yoqilg'i-energitika resurslarning bazasida rivojlanmoqda. Xom ashyoni qazib chiqarishdan boshlab, to turli xil maxsulotlarni olgunga qadar bo'lgan butun kompleks jarayonlarini o'z ichiga oladi. Ularni xom ashyo, yoqilg'i, energiya manbalariga ishlab chiqarishlarni yaqinlashtirish va ulardan ratsional foydalanishdan kelib chiqqan holda joyda ishlab chiqarsa bo'ladi.

Ularga energiya ishlab chiqarish tsikllarining quyidagi tiplari ajratilgan:

1) Qora metallurgiyaning prometallurgik tsikli;
2) Rangdor metallarning prometallurgiya tsikli;
3) Nefteenergiokimyo tsikli;
4) Gidroenergiya ishlab chiqarish tsikli;
5) Qayta ishlash industriya tsikli;
6) O'rmon-energiya tsikli;
7) Industrial-agrar tsikli';
8) Gidromeliorativ industrial-agrar tsikli.

Shunday qilib, energiya ishlab chiqarish tsikllarining tushunchasi asosiga ishlab chiqarish jarayonlarining tiplari haqida tasavvurlar qo'yilgan va ular mamlakatning turli rayonlarida texnologik zanjirning tugunlarida kompleks tuzilishining umumiy i/ch-da tabiiy, material va mehnat resurslarni talab qiladi.

N.N. Kolosovskiyning energiya i/ch tsikllarining kontseptsiyasi haqidagi ilmiy ishi chiqqandan so'ng, ancha vaqt o'tdi. Bu davr mobaynida ishlab

chiqarishni ximiyalash-shi natijasida yangi tsikllar barpo qilindi. Oldingilari esa strukturaviy o'zgartirildi.

Agar, bu faqatgina i/ch, uni qishloq xo'jaligi va qurilish bilan bevosita aloqalarini oladigan bo'lsak, energiya i/ch tizimining quyidagi printsipial xususiyatlari bilan umumiy mehnat taqsimoti va ilmiy texnik taraqqiyotning rivojlanishi natijasida vujudga kelgan yangi tsikllarni qo'shimcha belgilash va tushuntirish; yetarli miqdorda bo'lgan tabiiy, material va mehnat resurslariga ega bo'lgan hududlarni tsikllar bilan bog'lash; turli xil tsikllararo aloqalarni shakllantirish, zamonaviy energiya i/ch tsikllar tizimiga quyidagilar kiradi:

1. Qora metallarning prometallurgik tsikli. Bu kerakli miqdorda temir rudalari va kokaslangan ko'mir resurslariga ega bo'lgan rayonlar uchun xarakterlidir. MDH davlatlaridagi Donbass, Mas, Dnepr bo'yi, Ural, Kuzbass va boshqalar. Unkiga xom ashyo va yoqilg'ini qazib chiqarish va uni boyitish, metallurgik qayta ishlash (cho'yan-po'lat); ko'mirni kokoslash va undan benzol va boshqa og'ir organik sintez yarim mahsulotlar olish; Ammiak va atsitelin i/ch uchun, uning azot o'g'itlar bazasida esa (Ammiak SI-litrasi korbamit) va turli xil kimyoviy mahsulotlar (kaprolaktan, vinilotsetat, plastiklar va boshqa) i/ch uchun kokasli gazni (utilizatsiya) chiqindilashtirish; qurilish materiallarini (ayniqsa tsement) i/ch va bunda domna shlaklaridan foydalanish; metall hajmini mashinasozlik (shu jumladan metall konstruktsiyalar i/ch). Kelajakda tsiklni yaqin yo'nalish bo'yicha kimyolashtirish mumkin.

A) domna gazni chiqindilashtirish. Bunda ammiak va metknol olish maqsadida gazga kislorod (puflanadi) qo'yiladi, natijada u tarkibi jihatdan sintez gazga yaqin bo'ladi.

B) domna gazni suv bug'i bilan konversillash natijasida, tabiiy gazning hamma uglevodorodi, domna jarayonida foydalaniladigan uglekislotaga aylanadi, bu esa yangi azot o'g'iti –uglerodli ammoniy i/ch uchun xom ashyo sifatida xizmat qiladi. Qora metallarning prometallurgiyasi mamlakatning ayrim rayonlarida katta texnologik va energetik yoqilg'i resurslari, issiqlik energiyasi i/ch tsikli bilan (domna gazni chiqindilashtirish asosida nishonlarni qizitish uni va elektorenergiyadan foydalanishda) va ko'mirenergokimyoviy tsikl bilan (ko'mirni kokaslashishi orqali) chambarchas bog'liqdir.

2) Rangdor metallarning prometallurgik tsikli. Bu MDH davlatlari iqtisodiy rayonlaridan Qozog'iston, Ural, Sibir, Zakavkaze va O'zbekiston respublikalaridagi rangdor metallarning katta manbalari joylashgan rayonlari uchun xarakterlidir. Tsiklga: xom ashyoni qazib chiqarish, boyitish va metallurgik qayta ishlash kiradi. Bunda asosiy komponentlarning yo'nalishlarini ajratib olish uchun oraliq mahsulotlardan ko'p marotaba foy-di; qora metallarni (rafinatlash) bo'laklash; eritmalarni i/ch; Oltingugurt kislota bazasida, Oltingugurt kislotasi va ayrim mahsulotlarni (mas, fosfat o'g'itlar) olish uchun oltingugurtli chiqindilarni (asosan gazlarni) chiqindilashtirish; rangdor uchun harakterlidir. Tsiklga: xom ashyoni qazib chiqarish, boyitish va metallurgik qayta ishlash kiradi. Bunda asosiy komponentlarning yo'nalishlarini ajratib olish uchun oraliq

mahsulotlaridan ko'p marotaba foydalandi; qora metallarni (rafinatlash) bo'laklash; eritmalarni ishlab chiqarish; Oltingugurt kislota bazasida, Oltingugurt kislotasi va ayrim mahsulotlarni (mass, fosfat o'g'itlar) olish uchun oltingugurtli chiqindilarni (asosan gazlarni) chiqindilashtirish; rangdor metallarni ko'p talab qiladigan mashinasozlik (elektrotexnika, kabel ishlab chiqarish va boshqa) sanoatlari kiradi.

Ba'zi bir rayonlarda (mas, shimoliy Kavkazda, sharqiy Qozog'istonda) rangdor metallarning pirometallargiyasi ruhni gidrometallurgik usul bilan olish uchun GES lardagi energiyalardan ko'p miqdorda foydalanish ta'sirida gidro-energiya ishlab chiqarish yikli bilan aloqa qiladi.

3) Kam uchraydigan metallarning kimyometallurgik tsikli. U ham rangli metallar pirometallurgiyasi mavjud rayonlarda faoliyat ko'rsatmoqda. Bu tsikl tarkibiga xom ashyoni qzib chiqarish va faqatgina ko'p tannajlisini boyitish (tayyor mahsulot birlamchi hisobida), ba'zi hollarda uni kimyoviy va elektrokimyoviy usullar yordamida qayta ishlash.

Oldingi tsiklga qaraganda uning yo'ldosh ishlab chiqarish sanoatlari deyarli yo'q. Bu holni kam uchraydigan materiallardan foydalanish spetsifikasi tushuntiradi.

4) Nefteenergokimyo tsikli. Tsikl neft va unga yo'ldosh bo'lgan neftli gazlar mavjud bo'lgan rayonlar uchun xosdir. Quvur transportining keng rivojlanishi bilan bog'liq ravishda, xom ashyoni qazib chiqaradigan joylardan uzoq bo'lgan neft mahsulotlarini iste'mol qiluvchilar oldida shakllanmoqda. Tsiklga neftni qayta ishlash (peregonka, kreking, piroliz, riforming) motor yoqilg'ilari, smazka va mazut ishlab chiqarish uchun; ko'pchilik organik sintez yarim mahsulotlarni (monamerlar)-(etilen, propilen, atsetilin, izopren, divinil, stirok, axrilonitrit, binzol, taluol, shuningdek ksilol va bular asosida sintetik (smola) qora moy, plastik massalar, sintetik spirt, turli xil sintetik kauchuk va tolalar olish uchun neft qayta ishlash sanoatidagi uglevodorodlardan va qo'shimcha neftli gazlardan foydalaniladi.

Neft gaz xom ashyosidagi organik sintez asosiy kimyo tomon 2 shoxchaga bo'lanadi:

a) Azot o'g'itlaridan (Atsetilendan) ammiak ishlab chiqarish uchun;

b) Neft mahsulotlarini (oltingugurt vodorodi) chiqindilash yo'li bilan oltingugurt kislotasi va oltingugurt ishlab chiqarish, bundan tashqari tsikl tarkibiga neftli va kimyoviy mashinasozlik kiradi. Neftni qayta ishlash asosida paydo bo'lgan: mazut, kreking-qoldiq va quruq gazlardan joyda foydalanish bu tsiklni issiqlik energiyasini ishlab chiqarish tsikli bilan birlashishiga olib keldi.

5) Gaz –energo-kimyo tsikli. Shakllanishning regional xususiyatlari bo'yicha u nefteenergokimyo tsikli bilan o'xshashdir, buning natijasida bu tsikllar ko'p hollarda bir-birini yopib turadi. Tabiiy gazdan oltingugurt va sintez gaz (alohida-alohida va bir vaqtda) so'ng ammiak va metanol olish mumkinligi organik sintez va asosiy kimyo bilan 3 yo'nalish bo'yicha yaqin aloqasini shakllanishiga ta'sir qiladi;

a) azot o'g'itlari (ammiak silitrasi, karbamid, ammiakli suv) karbamidgi va fenoformaldegid qora moylari, (smola) ular asosida esa plastik massalar:

b) sintetik kauchiklar va sintetik tolalar ishlab chiqarish uchun azot o'g'itlar va kerakli organik yarim mahsulotlar (atsetatdegid, uksus kislotasi, shuningdek, alkrilonitril va boshqalar):

v) sintetik tola (kapron, anid) ishlab chiqarish uchun foydalaniladigan azot o'g'itlari va bir guruh organik yarim mahsulotlar (mass, kakroloktom, adipin kislotasi va boshqa).

Gazenergokimyo tsikli azot o'g'itlar va boshqa tarkibida azot bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqarish uchu nasos hisoblanadi. Neftenergokimyo tsikli singari, u ham alohida mashinasozlikka ega bo'lib, issiqlik energiya ishlab chiqarish tsikli bilan bog'liq bo'ladi.

6) Ko'mirenergokimyo tsikli. Bu MDH davlatlari va iqtisodiy rayonlardan Danbass, Ural, Kuzbassda rivojlangan. Bu tsikl ko'mirni qazib chiqarish, boyitish, kokaslash, yarim kokaslashi va gidroginazatsiyalash bilan benzol, neftalin va boshqa organik sintez yarim mahsulotlarni va mahsulotlarni olishi bilan ko'rsatilgan. Tsiklga tog'-kon (ko'mir) asbob-uskunalarni ishlab chiqarish kiritiladi. Uni qora metallar pirometallurgiyasi va issiqlik enegiyasi uchun tsikllari bilan chambarchars aloqadorligini harakterlidir.

7) Slanetsenergokimyo tsikli. Bu to'liq ifodalangan, ba'zi bir tarmoqlari slanetslarni qazib chiqarish, ularni motor yoqilg'isiga (benzin, kerosin) va smazkali moylar olish uchun tozalash, qayta ishlash va undan ko'pchilik qo'shimcha mahsulotlar, masalan: lak va grafikatsiya un-yonadigan (maishiy) gaz va Gazli benzin, chiqindilarni yo'qotish hisobida-oltingugurt olinadi. Slanetslar ko'li va boshqa chiqindilar bazasida tsement, blokli mahsulotlar, asfalt, issiqlikni saqlaydigan materiallar ishlab chiqarilishi rivojlangan. Slanetslardan energokimyoviy, kompleks foydalanish, bu tsiklni issiqlik energiya ishlab chiqarish tsikli bilan bog'laydi.

8) Tog'-kimyo tsikli asosan kaliy va osh tuzi, oxaktosh va boshqa mavjud bo'lgan rayonlarda yoki tog'-kimyo xom ashyosi bo'lgan rayonlarda rivojlanadi.

9) O'rmon-energokimyo tsikli. U asosan qulay sharoitga ega bo'lgan MDH rayonlari: G'arbiy Sibir, sharqiy Sibir, Uzoq Sharq, Ural va mamlakatning Yevropa qismidagi o'rmonni rayonlarda rivojlangan. Unga yog'ochni tayyorlash, mexanik qayta ishlash, shu jumladan pilomaterial ishlab chiqarish, qurilish detallari, yog'ochni-tolali va yog'ochli-chiqindili plitalar ishlab chiqarish va nihoyat xom ashyoni mexanik va kimyoviy qayta ishlab, undan tsellyuloza, qog'oz, viskoza, gidroliz mahsulotlar, skipadar, uksus kislotasi, kanifol va boshqa ishlab chiqarish kiradi. Ba'zi hollarda (Ural) tsikl tarkibiga yog'och yoqilg'i asosidagi qora metallurgiya kiradi.

10) Issiqlik energiyasini ishlab chiqarish tsikli. Asosan arzon yoqilg'i to'plagan rayonlarida qulay sharoitiga ega ko'mirni ochiq usulda qazib chiqarish, shuningdek tabiiy gaz va mazut hisobida rivojlanishi mumkin. Masalan: O'zbekistondagi GRES, TEQ va TES va boshqalar effektiv yoqilg'i hisoblangan

tabiiy gaz bo'lgan hududlar hisobiga rivojlanmoqda. Tsikl kuchi issiqlik elektrostantsiyalarining energiyasidan (bo'g' va issiq suv) yoqilg'i-energetika talabi tayyor mahsulot birligiga nisbatan yuqori bo'lgan ishlab chiqarishlardagi yoqilg'i bilan birgalikda foydalanilgan holda vujudga keladi. Bunga misol qilib, neftelinlardan kompleks foydalanish va ulardan glinozem, soda va tsement olishni, keltirish mumkin.

11) Atom-energiya ishlab chiqarish tsikli. U hududiy, o'zaro bo'lingan, lekin ba'zida birgalikda uchraydigan 2 ishlab chiqarish blokini o'ziga qamrab keladi. Ularning bittasi faqatgina tabiiy uran manbalariga orintirlashgan. U yadro yoqilg'i masshtabli ishlab chiqarish uran va plutoniyni olish maqsadida xom ashyoni ko'p bosqili radiokimyoviy usullar asosida boyitishga qaratilgan. Ishlab chiqarishning 2 bloki esa atom elektrostantsiyalarni (AES va ATETs) va bo'g' qozonxonalarini (AST) vujudga keltiradi. Ularning yadro yoqilg'isi absalyut transtabelligi tufayli elektroenergiya va issiqlik iste'molchilariga orentirlash harakterli bo'ladi. bu vaqtda tez teytronli reaktorlar bilan ta'minlangan AES Lar yadro yoqilg'ini regelirovka qilish imkoniyatiga ega va uning qimmatbaho turi bo'lgan-plutoniyni ishlab chiqarishda manba bo'lib xizmat qiladi. AES lar asosan Yevropa qismining yoqilg'i-energetika balansi keskin bo'lgan rayonlarda joylashgan iste'molchilarga intilib, ular o'z navbatida elektro va issiqlik hajmidagi ishlab chiqarishni shakllandi.

12) Gidroenergiya ishlab chiqarish tsikli. Bunday tur tsikllar birlamchi navbatda gidroenergetik resurslari rayon miqyosida katta rol o'ynaydigan O'rta Osiyo va O'zbekiston respublikasi rayonlarida ko'p va arzon elektr-energiya manbalari bo'lgan kuchli gidrovlik uskunalar mavjud bo'lgan holdagina shakllanishi mumkin. Ular tarkibiga alohida va bir vaqtda elektrometallurgiya (AI, Md, Ti va boshqalar) elektrokimyo (kaltsiykoroami, kaltsiyli uionamid, fosfor, xlor va bosh) va elektroenergiyaga texnalogik jarayonlarni chuqur kiritadigan ishlab chiqarishni qushish mumkin. Ba'zi xollarda bu tsikl issiqlik energiyani ishlab chiqarish tsikli bilan aloqada bo'ladi. Buni Olmaliq- Ohangaron sanoat misolida ko'rish mumkin.

13) Mashinasozlik tsikli. Bu tsikl oldindan rivojlangan indusrial rayonlar uchun birinchi navbatda yuksak texnik madaniyat, malakali kadrlar va qulay transport geografik sharoitga ega bulgan rayonlar uchun xosdir. Butsiklga chetdan keliriladigan metall asosida ishlaydigan avtomabilsozlik, priborsozlik, stanoksozlik, elektrov a radio texnika, elektronika va boshqa qimmatbaxo maxsulotlar ishlab chiqariladigan korxonalar kiradi.

Sikl uchun mashinasozlikdagi texnologik jarayonlarda 2 bosqini mavjudligi harakterlidir. Mexanik ishlov berish va terish, shuningdek kimyo va boshqa ishlab chiqarish tomonidan qo'shniligi ma'lum.

14) To'qimachilik ishlab chiqarish tsikli. Bu tsikl bir tomondan mahsulotni qilish rayonlarda, tarixiy transport geografik joylashishi, mehnat resurslarining va boshqa resurslarni hisobga olgan holda rivojlanadi. Markaziy Osiyo respublikalarida ikkinchi tomondan xom ashyo manbalari yonida yangi tekistil

## *Ma'ruza.* TARMOQLAR VA TARMOQLARARO KOMPLEKSLAR

## REJA:

1. Sanoat tarmoqlari haqida tushuncha
2. Tarmoqlararo majmualarni shakllanishi
3. O'zbekistonda shakllangan va shakllanayotgan tarmoqlararo majmualar
4. Qarshi hududiy ishlab chiqarish majmuasida shakllangan tarmoqlararo majmualar

Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya asosan rayon yo'nalishida yaratilgan bo'lsada, unda tarmoqlarni o'rganish ham muhim o'rinni egallaydi.

Iqtisodiyotni hududiy tarkib topishini ta'riflashda xalq xo'jalik tarmoqlari (shuningdek tarmoqlararo komplekslar) bilan iqtisodiy rayonlar o'rtasida nisbat katta ahamiyatga ega. Har bir tarmoq bir-biriga yaqin korxonalarning mavjud sifatida muayyan ishlab chiqarish texnik birligiga ega biroq, undan faqat vertikal aloqalar bo'yicha emas, balki gorizontal aloqalar ya'ni bir xududda, bir iqtisodiy rayon doirasida joylashgan turli tarmoqlarning korxonalari o'rtasida vujudga kelgan va rivojlanayotgan aloqalar bo'yicha ham ko'rish mumkin.

Binobarin, har bir tarmoq umuman xalq xo'jaligining tarkibiy qismi sifatida ayni vaqtda u yoki bu rayon TICHK ning zvenosi hamdir. Tarmoqlararo va regional aspektida taxlil qilishning o'zaro chambarchars bog'liq ekanligi-xalq xo'jaligining hududiy tashkil qilish iqtisodiy geografik jihatdan asoslab berishning tipik belgisidir. Shu sababli ayrim holda olingan tarmoqni o'rganish, XICHK ning boshqa tarmoqlari, aholi hamda uning mehnat resurslari, tarixan to'plangan moddiy boyliklari, atrofni o'rab turgan tabiiy muhit, xom ashyo va yoqilg'i energetika resurslari bilan bo'lgan barcha aloqa va munosabatlarni to'la ochib berishi mumkin.

Turli korxona tarmoqlarning har bir hududda uyg'unlashuvi (kombinatsiyasini) ularning ayrim tomonlari bilan o'ziga xosligi hisobga olinadi. Shu boisdan ham avval tarmoqlarni keyin XICHK larini o'rganish maqsadga muvofiqdir.

Demak, tarmoqlar rayonlar yoki ularning hududiy tarkibi, rayonlar esa tarmoqlar tuzilishi vositasi bilan o'rganiladi. Huddi ana shu ikki turli ko'rinishdagi tizim-tarkib uslubidan bir-biri bilan bog'liq va uyg'unlashtirilgan tarzda foydalana olish geografik tadqiqotning muhim belgi va mezonidir.

Bu mavzuni yoritishdan oldin, odatdagidek umumiy tushunchalarni ochib berish lozim. Aks holda har qadamda bu umumiy tushunchalarsiz «qoqilish», behuda orqaga chekinishlar bo'lishi turgan gap.

Ma'lumki, xalq xo'jaligini tashkil etuvchi tarmoqlar muayyan belgilarga asoslangan holda ajratiladi. Bu masalani sanoat tarmoqlari misolida ko'rish maqsadga muvofiqdir. Sanoat tarmoqlari quyidagi ko'rsatkichlarni hisobga olgan holda ajratiladi:

- xom ashyo birligi

**Отформатировано**
**Отформатировано:** французский (Франция)
**Отформатировано:** французский (Франция)
**Отформатировано:** Шрифт: (по умолчанию) Times New Roman, 14 пт, французский (Франция)
**Отформатировано:** По ширине, Отступ: Слева: 0,63 см
**Формат:** Список
**Отформатировано:** Шрифт: (по умолчанию) Times New Roman, 14 пт, французский (Франция)
**Отформатировано:** французский (Франция)
**Отформатировано:** По центру
**Отформатировано:** По ширине
**Отформатировано**
**Отформатировано**
**Отформатировано**
**Отформатировано**
**Отформатировано**
**Отформатировано**
**Отформатировано**
**Отформатировано:** Шрифт: (по умолчанию) Times New Roman, 14 пт

- ishlab chiqarilgan mahsulotni qayta maqsadda ishlatilishi;
- texnologik birlik.

Xom ashyo asosida, masalan, mashinasozlik, o'rmon va barcha tog'-kon sanoat tarmoqlari ajratilgan. Mashinasozlik va metallni qayta ishlash tarmog'ida, jumladan, turli texnologiya yordamida har xil mahsulot-muzyorar kemalar yoki gigant ekskavatorlar, samolyotlardan tortib to juda kichik ignalar, naylarni ishlab chiqarish kiradi, chunki ularning asosida metall yotadi. O'rmon sanoatida ham xudi shunday: o'rmon-yog'och negizida har xil texnologiyani qo'llab, turli maqsadlar uchun qog'oz, gugurt, qurilish materiallari, yog'och uylar, temir yo'l shpallari yoki shunga o'xshash mahsulotlar ishlab chiqariladi. Ikkinchi belgi asosida oziq-ovqat, yengil, elektroenergetika, metallurgiya, qurilish sanoati va boshqa tarmoqlar ajratiladi. Chunonchi, oziq-ovqat sanoat korxonalari turli xom ashyo va har xil texnologiyadan foydalanib, faqat bir maqsadda, ya'ni aholining oziq-ovqatga bo'lgan ehtiyojini qondirish uchun ishlaydi. Qolgan sanoat tarmoqlari ham shunday: metallurgiya mashinamozlikni, elektroenergetika butun xalq xo'jaligini ta'minlashga qaratilgan.

Texnologik jarayonning birligi tarmoqni belgilash uchun xizmat qiladi, xolos. Bu ham bo'lsa kimyo sanoati chunki unga kiruvchi barcha korxonalar har xil xom ashyo, turli maqsadni (axir, kimyo mahsulotlari barcha sohalarda, xatto kiyimimiz, yozayotgan ruchkamizda ham bor) ko'lab ishlaydi. Ularning barchasiga umumiy mezon-bu texnologik jarayonning birligi hisoblanadi.

Sanoat tarmoqlari ular ishlab chiqaradigan mahsulot xususiyatiga ko'ra ikki guruhga jaratiladi: og'ir sanoat yoki «A» guruhi va yengil, oziq-ovqat sanoati yoki «B» guruh. Bu yerda birinchisi ishlab chiqarish vositalarini, ikkinchisi iste'mol mollarini ishlab chiqaradi. Umumiy qonuniyat «A» guruhini «B» ga nisbatan ustuvor, tezroq rivojlanishidan iborat, chunki ishlab chiqarish vositalarisiz (mashina, qurilish materiallari, metall va hk.) iste'mol mahsulotlari, qolaversa xalq xo'jaligini rivojlantirish qiyin.

Biroq, bu qonuniyat barcha mamlakatlarda ham birday emas. Masalan, sobiq Ittifoq xalq xo'jaligini industriyalashda aynan shu maqsad ko'zlangan edi, ya'ni avval og'ir sanoat-ishlab chiqarish vositalari, so'ng qolganlari. Natijada mamlakatda juda yirik sanoat korxonalari-mashinasozlik, qora va rangli metallurgiya, ximiya zavodlari, elektr stantsiyalari barpo etildi. Ular iqtisodiyotimizning o'zagini tashkil etardi. Ammo, qolgan tarmoqlarga, ijtimoiy jabhalarga e'tibor susaygan bo'lib «eng avval iqtisod, so'ng siyosat» g'oyasi o'ta muhim edi. ehtimol shu ham geografiya fanining ko'proq iqtisodiy bo'lishiga, jamiyatda insonga, uning yurish-turishiga, ijtimoiy sohalarga e'tiborsizlikka olib kelgan ajab emas.

Xorijiy mamlakatlarda esa industriyalash boshqacha yo'sinda olib borilgan: Bu yerda asta-sekinlik (evolyutsiya yo'li) bilan ya'ni avval yengil (tekstil), so'ngra boshqa sanoat tarmoqlari barpo etila boshlagan. Bizda traktorsozlik paxtachilik uchun kerak deb rivojlantirilgan bo'lsa, xorijda tekstil uchun mashina, dastgohlar, ular uchun esa, o'z navbatida, metall zarur degan ma'noda amalga

oshirildi (ya‘ni «pastdan yuqoriga»). Qaysi bir yo’l to’g’ri bo’ldi va qanday Samara berdi degan savolga bir ma‘noda qat‘iy javob berib bo’lmaydi, albatta. Bu masalaga tarixan va aniq yondashish lozim.

O’rta Osiyo respublikalarida o’sha davrda, jumladan hududimizda foydali qazilmalarning ochilmaganligi, temir yo’llarning kamligi milliy ishchi kadrlarning yo’qligi qishloq xo’jaligi asosida rivojlanuvchi yengil va oziq-ovqat sanoati korxonalarini ko’rishni talab etardi. Sanoat tarmoqlarining bunday rivojlanishi shaharlashuv jarayonining ham muhim mintaqaviy xususiyatini aniqlab berdi.

Biz og’ir sanoatning yengil va oziq-ovqat sanoatiga nisbatan ustuvor rivojlanishini umumiy qonuniyat sifatida ta‘kidladik, darxaqiqat, bu shunday. Shu bilan birga ma‘lum davrda, vaqtincha boshqacha siyosatni qo’llashga ham to’g’ri keladi. Bunday nomunosiblik ikkala guruh rivojlanishidagi oraliq, muvozanat buzilishidan kelib chiqadi. Chunonchi, respublikamizda og’ir sanoat bilan iste‘mol mollarini ishlab chiqaruvchi tarmoqlar o’rtasida nomuvofiqlik vujudga keldi, ya‘ni ikkinchi guruh tarmoqlar ancha orqada qolib ketdi. Shu sababli hozirgi paytda O’zbekiston Respublikasida «B» guruh rivojlanishini faollashtirish, ichki bozorni iste‘mol mollari bilan to’ldirish muhim masala bo’lib qoldi. Bu muammoni hal etilishi bilan kun tartibiga masala bo’lib qoldi. Bu muammoni hal etilishi bilan kun tartibiga yana og’ir sanoatni tezroq rivojlantirish qo’yiladi.

Hozirgi davrda jahon sanoat tarmoqlari tarkibida qo’yidagi jarayonlar namoyon bo’lmoqda:

- ilmiy-texnika taraqqiyotini belgilovchi sohalarni (elektroenergetika, mashinasozlik va kimyo) ildamroq rivojlanishi;
- ilmiy texnika taraqqiyoti negizida yangi-yangi tarmoqlarning vujudga kelishi;
- tarmoqlar o’rtasidagi aloqalarning ko’chayishi, tarmoqlararo majmualarning shakllanishi va h.k.

Mustaqil mamlakatimiz xalq xo’jaligi tarkibida bir qator tarmoqlararo majmualar vujudga kelmoqda. Ular orasida yoqilg’i-energetika, metallurgiya, mashinasozlik, agrosanoat majumalarining ahamiyati katta. Zero, yoqilg’i-energetika va oziq-ovqat majmuasi yaxshi rivojlanmagan har qanday mamlakatni tom ma‘noda iqtisodiy barkamol va mustaqil deb bo’lmaydi. Shu bois bu majmualarga taalluqli korxonalarni ko’proq va tezroq rivojlanitirish maqsadga muvofiqdir.

Metallurgiya (qora va rangli metallurgiya) majmuasini rivojlantirish ham katta ahamiyatga ega. Ayniqsa metallurgiya asosida rivojlanuvchi mashinasozlikka e‘tiborni kuchaytirish lozim. Mashinasozlik korxonalari turli omillarga ko’ra joylashtiriladi. Ular orasida xom ashyo, iste‘mol, malakali ishchi va iqtisodiy geografik o’rin asosiy mavqealarni egallaydi. Ko’p metallni talab qiluvchi korxonalar qora metallurgiya rayonlariga, malakali kadrlarga asoslangan mashinasozlik esa yirik, ilmiy-texnika yuqori darajada rivojlangan shaharlarda joylashadi.

Respublikamizning mustaqillikka erishishi tufayli zamonaviy mashinasozlik korxonalarini chet mamlakatlar firmalari bilan hamkorlikda ko'rish tajribasi hamkorlikda ko'rish tajribasi ham amalga oshirilmoqda. Jumladan, Asakada (Andijon viloyatida) Janubiy Koreya, Xorazm viloyatidagi Do'stlik (ilgari Drujba) shahrida Germaniya davlatlari bilan birgalikda yengil va yuk mashinalarini ishlab chiqaruvchi zavodlar qurilmoqda. Qadimiy Xivada Rossiya Federatsiyasi bilan hamkorlikda «ZIL» yuk mashinalari, Samarqandda Turkiya bilan birgalikda avtobus ishlab chiqaruvchi korxona yaratilmoqda, mavjud yirik sanoat korxonalarida chet mamlakatlar sarmoyasi va texnologiyasidan foydalanilgan holda zamonaviy elektrotexnika mahsulotlari, jumladan, radio, televezor va boshqalarni ishlab chiqish yo'lga qo'yilmoqda.

Bunday majmualarning shakllanishi ob'ektiv bo'lib, uning asosida qishloq xo'jaligi bilan sanoatning bir-biriga yaqinlashuvi, hamkorligi (kooperatsiyasi) yotadi. Agrosanoat majmuasini to'g'ri rivojlantirish juda katta va keng sotsial-iqtisodiy, ekologik mazmunga ega. Agrosanoat majmualari ikki ko'rinishdagi tarkibga ega: tarmoq va hududiy tarkib. Geografik nuqtai-nazaridan ularning hududiy tashkil etishidagi qonuniyatlarini o'rganish muhimroqdir. Bu bois agrogeografik tadqiqot ishlarini ham rivojlantirish lozim, o'quvchilarga qishloq xo'jaligi tarmoqlarining joylashuvidagi xususiyatlarini ochib berish zarur. Ayniqsa, qishloq xo'jalishigining tabiiy sharoiti bilan ko'proq bog'liq ekanligi, uning mavsumiyligi areal va mintaqaviy tashkil etilishidek tomonlarini alohida ta'kidlash lozim.

Agrosanoat majmualari dehqonchilik va chorvachilik asosida shakllanadi. Bizning sharoitimizda ko'proq birinchisi, eng avvalo uzumchilik, bog'dorchilik bilan bog'liq bo'lgan sanoat korxonalari tarqalgan.

Tabiiy sharoitning qulayligi ko'proq qishloq xo'jalik mahsulotldarini yetishtirishga, bu esa yengil va oziq-ovqat sanoatini rivojlanitirishga, ichki bozorni iste'mol mollari bilan to'yintirishga va natijada xalq farovonligini oshirishga olib keladi. Agrosanoat majmuasini faolroq rivojlantirish katta ahamiyatga ega.

Ilmiy adabiyotlarda va boshqaruv tizimida «birlashma», assotsiatsiya, kontsern kabi tushunchalarni ham uchratamiz. Fikrimizcha, bunday birlashmalar ishlab chiqarish jarayonini tarmoq printsipi negizida yaxshilashga va boshqarishga mo'ljallangan. Ularga kiruvchi korxonalar asosan bir tarmoqqa tegishli bo'lib, Ayni paytda turli rayonlarda joylashgan bo'lishi mumkin.

Ishlab chiqarishni yangicha hududiy tashkil etishda filiallashtirishning ham mavqei sezilarli darajada katta. Ularning geografiyasini, ishlab chiqarish aloqalarini o'rganish ko'p jihatdan, jumladan, mahalliy mehnat resurslaridan to'laroq foydalanish muammolarini yechish nuqtai-nazaridan juda ahamiyatlidir. Shu bilan bu filiallar o'z iqtisodiyotini mustahkamlash asosida mustaqil korxona maqomini olishmoqda.

Ammo, birlashma va majmua tushunchalari bir-biriga yaqin bo'lsada, ular o'rtasida farq ham yo'q emas. Birlashma-bu bir tarmoqqa kiruvchi yirik korxona

yoki aksariyat hollarda turdosh bo'lgan korxonalar turkumi, majmua esa bir emas, ikki va undan ortiq tarmoqlarning uyushmasi, ularning uyg'un holda rivojlanishi demakdir.

Shu o'rinda tarmoqlararo va hududiy majmualar to'g'risida ham qisqacha fikr yoritaylik. Bu yerda ikkalasi ham majmua, ammo biri tarmoqlar va texnologik negizda vujudga kelsa, ikkinchisi turli tarmoqlarni muayyan bir hududda shakllanishini anglatadi. Binobarin, hududiy ishlab chiqarish majmualari tarmoqlararo majmualariga ko'ra geografiyaga yaqinroqdir. Ammo, bu yerda ham tizim-tarkib uslubiga muvofiq ularni bir-biriga bog'liq holda o'rganish lozim. Ayniqsa, hududiy ishlab chiqarish majmualarini taxlil etishda ularning ichidagi tarmoqlararo aloqalarni ochib berish nihoyatda o'rinlidir. Shu bilan birga tarmoqlarni o'rganishda ularning hududiy tashkil etilishiga e'tibor berish kerak.

Shunday qilib, tarmoqlararo va hududiy iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning muhim tadqiqot ob'ektlari hisoblanadi. Tabiiyki, majmuani yoki shunga o'xshash murakkab voqeilikni kompleks, har tomonlama o'rganish talab etiladi. Demak, iqtisodiy va ijtimoiy geografiyani asosiy tadqiqot ob'ekti-hududiy ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar yoki komplekslar o'z-o'zicha shunga molik va teng qamrovli yondashishni nazarda tutadi. Geografik bilimning muhim xususiyatlaridan biri bo'lmish chinakam kompleks uslubiyot ham shundan kelib chiqadi.

Demak, HICHK mazmunidan ko'rinib turibdiki, ularning shakllanishi avvalo xo'jalik tarmoqlari va tarmoqlararo ishlab chiqarish komplekslarining rivojlanishi bilan chambarchars bog'liq.

Mustaqil O'zbekiston Respublikasida xalq xalq xo'ealigining uzluksiz rivojlanishi natijasida, oldin xo'jalik tarmoqlari komplekslari (masalan: paxtachilik, chorvachilik, gazenergokimyo, neftegazenergo), irrigatsiya-melioratsiya, sabzavotchilik, kimyo, energiya ishlab chiqarish, to'qimachilik va boshqalar tarkib topib rivojlanmoqda. Natijada bir tarmoq korxonalari xom ashyodan, yoqilg'i-energiyadan, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlardan foydalanish jarayonida ikkinchi xo'jalik tarmoqlari korxonalari bilan bog'lanish natijasida 5 ta tarmoqlararo ishlab chiqarish komplekslari shakllanib rivojlanmoqda. Bular:

Paxta ishlab chiqarish kompleksi;

Yoqilg'i-energokimyo-kimyo kompleksi;

Rangdor metallurgiya kompleksi;

Mashinasozlik va metallsozlik kompleksi;

Binokorlik materiallari ishlab chiqarish va qurilish industriyasi kompleksi.

Yuqorida ko'rsatilgan tarmoqlararo ishlab chiqarish komplekslari O'zbekiston iqtisodiyotining barcha sohalarini o'z ichiga ololmaydi. Ulardan tashqari kompleks shaklida rivojlanayotgan ayrim xo'jalik tarmoqlari bor. Bularga to'qimachilik, tikuvchilik, transport-aloqa komplekslari kiradi.

Odatda, tarmoqlararo ishlab chiqarish komplekslarini nomi shu kompleksdagi yetakchi tarmoqlar nomi bilan (yuritiladi) ataladi. Ularni HICHK

# *Ma'ruza.* ISHLAB CHIQARISH KUCHLARINI JOYLASHTIRISHDAGI TADQIQOT USULLARI

**REJA:**

1. Bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiy munosabatlarning ahamiyati
2. Hududiy ishlab chiqarish majmualarini o'rganish va tadqiqotlar olib borishning ahamiyati
3. HCHIM tadqiqot usullari va bashoratlash

Bozor munosabatlariga o'tish sharoitidagi o'zgarishlar hududiy ishlab chiqarish kompleksining rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Chunki, bu fan bevosita iqtisodiy munosabatlarni, ishlab chiqarish kuchlarining hududiy jihatlarini tahlil va tashxis etadi. Binobarin, bozor iqtisodiyoti tarmoq doirasidan tashqari hudud tizimida ham sodir bo'ladi, korxonalarning erkin munosabatlari yoki tarmoqlar raqobati vujudga keladi. Hududiy mehnat taqsimotidagi bunday o'zgarishlar, turdosh va turli tarmoqlarga ixtisoslashgan rayonlarning o'zaro raqobatda rivojlanishi o'zining mohiyati va mazmuniga ko'ra HICHK larning tarkib topishini anglatadi. Har qanday HICHK ma'lum makonda hududda paydo bo'ladi. Ular turli darajada va yo'nalishdagi iqtisodiy va ijtimoiy rayonlarda yoki majmualardan iborat. Biroq, iqtisodiy rayon va unga mos keladigan hududiy ishlab chiqarish majmualari, kichik miqyosga ega bo'lgan ijtimoiy rayonlardan ancha kengroq bo'ladi.

HICHK larni o'rganishda rayonlashtirish muhim ahamiyatga ega rayon hududining ma'lum bir qismi bo'lib, u o'zining umumiy, o'xshash belgilari bilan qo'shni yoki tutash joylardan ajralib turadi.

«Rayon» tushunchasiga tegishli yana bir chalkashlik mavjud. bu uning yuqoridagilaridan keyingi uchinchi xususiyatidir. Gap shundaki, rayon ko'p bosqichli, pog'onasimon bo'ladi. binobarin, hamma vaqt qaysi yo'nalishdagi rayon, aniq aytilishi zarur. Chunki, Farg'ona vodiysi ham rayon, uning ichidagi viloyatlar, Sirdaryoning o'ng va so'l sohillari, tog', tog'oldi, tekislik qismlari, quyi ma'muriy birliklar, ularning ichki hududiy tarkibi va h.k. ham rayondir. Biroq ular turli darajadagi va yo'nalishdagi geografik rayonlar hisoblanadi. Geografiya fanining betakror va jozibali xususiyati ham shundaki, u har xil miqyosda fikr yuritish imkoniyatiga ega. Bu fan vakillari katta ichida kichikni, kichik orqali kattani tasavvur qila oladilar. Shu ma'noda rayon sirtdan o'z atrofidan ajralib tursada, u ichki jihatdan mutloq bir xillikni anglamaydi, va aksincha, tafovutlarga boy bo'ladi. bunday chigal va mushkul masalalarni o'rganishda tizim tarkib usuli ancha qo'l keladi. Shu bois geografiyada rayonlar hududiy tarkib, tizim-tarkib va tizim tushunchalariga yaqin bo'ladi. Zero, har qanday tarkib undan kattaroq hududiy tizimning bir qismi va Ayni paytda, hududiy tarkibning («tizimchaning») o'zining ham ichki tuzilmasi, rayon va «rayonchalari», qismchalari bor.

Rayon-rayonlashtirishning natijasi, rayonlashtirish esa ilmiy tadqiqot jarayoni, vositasi, usulidir. Demak, rayonlashtirish geografik o'rganishning emas, balki ko'proq tadqiqot metodidir. Bu yerda o'rganilayotgan mavzu mohiyatidan kelib chiqqan holda hudud bir-biriga o'xshash bo'laklarga (rayonlarga) ajratiladi va ularga iqtisodiy geografik tavsif beriladi.

Rayonlashtirishning printsip va omillari ham har xil bo'ladi. Masalan: iqtisodiy rayonlashtirishda, eng avvalo, iqtisodiy ixtisoslashuv, sotsial-iqtisodiy rayonlashtirishda, jumladan, aholi geografiyasida aholi zichligi, aholi punktlarining hududiy birligi rayon sifatida ajratiladi. Sotsial geografida esa bunday rayonlar hududiy ko'lami bo'yicha yanada kichikroq va ixchamroq bo'ladi. Sotsial rayonlar sifatida alohida mahallalar, mikrarayon, mavze va dahalarni ko'rsatish mumkin.

Rayon va rayonlashtirishning navbatdagi to'rtinchi xususiyati ularning hududiy shakllarida o'z ifodasini topadi. Bu yo'sinda hududiy rayonlashtirish yoki uni turli xil yiriklikdagi qismlarga ajratish bilan hudud doirasidagi real rayonlarni aniqlash bir xil mazmunga ega emas. Birinchisida mamlakat yoki viloyat hududi to'la-tekis bo'laklarga (rayonlarga) ajratiladi. Chunonchi, alohida iqtisodiy rayon sifatida Quyi Amudaryo-Xorazm viloyati va Qoraqalpog'iston Respublikasid-rayoni mavjud. Shu bilan birga bu o'lkadagi hududning barcha qismi ham iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lmaydi. Boshqacha qilib aytganda, bu yerdagi hozircha xo'jalik tuzilmasiga ega bo'lmagan joylar ham rayon doirasiga «yoppasiga» kiritilaveradi.

Ikkinchi turdagi rayonlar butun mamlakat hududini qoplab olmaydi. Ularga sanoat rayonlari-sanoat tugun va majmualari aholi rayonlari-shahar aglomeriatsiyalari kabi yaqqol shakldagi hududiy birliklarni misol tariqasida keltirish mumkin. Huddi shunday transport rayonlari ham «azonal» xususiyatga ega bo'ladi va butun muhitni qamrab olmaydi.

Ajratilgan u yoki bu tipdagi rayonlar shu sohaga tegishli hududiy majmualarga ko'pincha mos keladi. Bu ma'noda Mirzacho'l yoki Buxoro-Navoiy iqtisodiy rayonlar huddi shu nomli hududiy ishlab chiqarish majmualari shaklida aytilsa bo'ladi. Ammo hududiy majmualar uchun kompleks hosil qiluvchi, rayonlar uchun esa rayon shakllantiruvchi omil yoki tarmoqlar mavjud. Ana shu tarmoqlar joylashgan rayon yoki majmua sifatida namoyon bo'ladi.

Shu bilan birga geografiyadagi rayonlashtirishni qishloq xo'jaligi, mevachilik yoki urug'chilikdagi rayonlashtirish bilan ham chalkashtirish nodurust. Bu yerda dehqonchilik va mevachilikdagi urug', hamda meva navlarini tabiiy iqlim sharoiti mos keladigan joylarda ekish yoki o'stirish nazarda tutiladi.

Shunday qilib, geografiya va shu jumladan, ijtimoiy geografiyada rayonlashtirish usuli ham yetakchi ahamiyatga ega. Zero, rayonsiz geografiyani tasavvur qilib bo'lmaydi, geografiya fanining tarixi, sirasini aytganda, rayonlar tarixi demakdir. Rayonlashtirish tahlil etilayotgan hududni chuqur o'rganish, uning ichki xususiyatlarini aniqlash, asl ma'noda geografik bilimning shakllanishida bosh mezondir. Ayni paytda uning konstruktiv shakllanishida

(amaliy) ahamiyati ham yo’q emas: rayonlashtirish mamlakatning ilmiy asosilangan mintaqaviy siyosatini olib borishi va uni boshqarish uchun zarur vosita bo’lib xizmat qiladi.

Shuni yana bir kara ta‘kidlash joizki, rayon-geografiyaning bosh, birlamchi tushunchasi-ob‘ektiv va hududiy birlik, voqelik, uni ilmiy jihatdan ajratish va asoslash jarayoni esa tadqiqot yoki o’rganish usuli, yo’llari hisoblanadi.

HICHK larini o’rganish va tadqiq qilishda, hodisa va voqeliklarni bashorat etishda nisbatan oson va oddiyroq bo’lgan ekstrapolyatsiya usuli ishlatiladi. Bu usulda kelajak /perspektiv/ o’tmish /retrospektiv/ va hozirgi vaziyatdan kelib chiqadi. Ekstrapolyatsiya metodida kelajakda ham yaqin o’tmishdagi holat, jarayoni saqlab qolinishi faraz qilinadi. Bunda kelajak, ya‘ni bashorat /prognoz/ muddatining o’tmish davriga imkoni boricha mos kelishi maqsadga muvofiqdir. O’tmish va istiqbolning davriy ko’rsatgichlari esa tadqiq etilayotgan hodisaning mohiyatidan, uning qayta tiklanish tsiklidan kelib chiqadi. Chunonchi, demografik prognozlash ekstrapolyatsiya usulida 10-15 yil muddatga mo’ljallab bajarilsa, ularning realligi xaqiqiyligi ancha yuqori bo’ladi. Demak, buning uchun o’tmishdagi jarayon ham huddi shuncha /10-15/ yil muddatni qamrab olmog’i lozim; o’tmishni ko’p olib nisbatan qisqa davrga prognozlash mumkin, lekin aksincha emas-qisqa o’tmishga asoslanib uzoq muddatni bashorat qilish noto’g’ri va xaqiqatdan yiroq bo’ladi. chunki, bunday sharoitda baholangan hozirgi vaziyat turg’un, barqaror bo’lmasligi, konyuktura holatida bo’lishi tabiiydir. Bashorat qilish yilma-yil bajariladi, biridan ikkinchisiga ko’chirilib, surib boriladi (sababi bu yildagi ma‘lum nisbiy ko’rsatgichning mutloq miqdori oldingi yildan farq qiladi).

Demografiyada aholi bashorati ko’proq ana shu usulning murakkab shaklida-«demografik surish usuli» vositasida amalga oshiriladi va bunday bashoratning natijasi, aniqlik darajasi ancha yuqori bo’ladi. bu yerda bashoratni nisbatan uzoqroq muddatga mo’ljallash (bir avlod umriga teng darajada) imkoniyati to’g’iladi vash u yili tug’ilganlarning o’rtacha umr ko’rish davri ham ilmiy asosda aniqlanadi.

Biroq har qanday prognoz-bashorat ehtimollikdan holi emas va u mutloq aniqlikka aslo da‘vogarlik qilmaydi. B a sh o r a t  ning asosiy vazifasi-tadqiq etilayotgan voqeylik yoki hodisaning yaqin, o’rta va uzoq kelajakdagi taxminiy holatini aniqlashdan iboratdir.

Shunday qilib, HICHK lar to’g’risida tadqiqotlarni bajarishda turli xil usul va vositalardan foydalaniladi. Yosh geograflardan esa ana shu usullarni, o’zining oldiga qo’ygan maqsad va vazifalarni bajarishda to’g’ri va samarali foydalanishni talab qiladi. Geografiya fanlari tizimida birgina tadqiqot usulida foydalanish kifoya qilmaydi, balki ular birgalikda olib borilsa katta ilmiy natija beradi.

# A D A B I Y O T L A R


| | | |
|---|---|---|
| 1 | I.A. Karimov | «O'zbekiston iqtisodiy ilohatlarni chuqurlashtirish yo'lida». T.: O'zbekiston. 1995 |
| 2 | I.A. Karimov | «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik sharoitlari va taraqqiyot kafolatlari». –T.: O'zbekiston, 1997 |
| 3 | E.B. Alaev | Sotsialno-ekonomicheskaya geografiya. ponyatiyno-terminologicheskiy slovar. M.: Msl, 1983 |
| 4 | G.R. Asanov, M.N.Nabixonov, I. Safarov | O'zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi. T.: O'qituvchi, 1994 |
| 5 | N.N.Kolosovskiy | Teoriya ekonomicheskogo rayonirovaniya. M.: Msl, 1994 |
| 6 | V.V.Kistanov | Territorialnaya organizatsiya proizvodsva. M.: 1981 |
| 7 | E.Nabiev, A.Qoyumov | O'zbekistonning iqtisodiy salohiyati. –T., 2000 |
| 8 | I. Salomov, U. Parpiev | Bozor iqtisodiyoti asoslari va ishlab chiqarishni tashkil etish. – T.: Sharq, 1996 |
| 9 | Y.G.Saushkin | Ekonomicheskaya geografiya: istoriya. Teoriya, metod i praktika. – M.: Msl, 1983 |
| 10 | A.S.Soliev va boshqalar | Mintaqaviy iqtisodiyot. T., «Universitet», 2003 |
| 11 | A.Sodiqov | Formirovanie i razvitie regionalnx agropromshlennx kompleksov. T., 1989 |
| 12 | A.S.Soliev, T. Mallaboev | Iqtisodiy va sotsial geografiya kursida ayrim qonuniyatlarni o'rganish metodi. – T.: 1988 |
| 13 | A.S.Soliev, L.Qarshiboeva | Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning dolzarb masalalari. – T. 1995 |
| 14 | A.S.Soliev L.Qarshiboeva | Iqtisodiy geografiyaning nazariy va amaliy masalalari. T. 1999 |
| 15 | V.A.Chjen | Bozor sharoitida mintaqaning tarmoq taraqqiyoti. T., 1997 |
| 16 | M. Hakimova, B. Mahmudov | Xalqaro iqtisodiy munosabatlar |
| 17 | Territorialne proizvodtvenne kompleksne. M.Msl, 1970 | |
| 18 | S.G'.G'ulomov, M.Barbakadze | Hududiy tizimlarni optimallashtirish metodlari va usullari. –T.: O'zbekiston, 1992 |
| 19 | O'zbekiston Respublikasi Entsiklopediyasi. T.: Qomuslar bosh boshqarmasi, 1997 | |
| 20 | A.I.Chistobaev, | Ekonomicheskaya i sotsialnaya geografiya. novy etap. |

| | | |
|---|---|---|
| | M.D.Shargin | Leningrad,  Nauka, 1990-319 s. |

**Отформатировано:** Шрифт: 14 пт, английский (США)

**Отформатировано:** английский (США)

**Отформатировано:** английский (США)